



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 2-aprel, seshanba,
40 (23.917)-son

**KUN
HIKMATI**

O'quvchiga
bilimni
mehrsiz
o'rgatib
bo'lmaydi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

Qaror ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazorati o'rnatiladi

Davlatimiz rahbari joriy yilning 28-mart kuni "Islom taraqqiyoti banki ishtirokida "Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish" (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi.


Qishloq aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish orqali aholining yashash sharoitini yaxshilash, ularning turmush darajasini oshirish maqsadida qabul qilingan qaror doirasida viloyatimizning 10 ta tumanida qator investitsion dasturlarni amalga oshirish belgilangan. Buning natijasida 16 ta asosiy va unga yondosh 36 ta mahallada yashovchi 210 mingga yaqin aholi turmush sharoiti yaxshilanadi.

Qarorda belgilangan vazifalarning ijrosini sifatli ta'minlash masalasi viloyat hokimi E.Turdimov boshchiligidagi tegishli mas'ullar ishtirokida muhokama qilindi.

– Qarorda belgilanganidek, 2024-2028-yillarda viloyatimizda 19 ta maktab, 14 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 10 ta oilaviy shifokorlik punkti quriladi, – dedi E.Turdimov. – Shuningdek, 16 kilometr ichimlik suvi, 27 kilometrga yaqin elektr tarmoqlari tortiladi, 122 kilometrdan ortiq yo'l infratuzilmasi yaxshilanadi. Bu inson qadri ulug'lanadigan yurtimizda, xalq roziligi yo'lida olib borilayotgan islohotlarning yana bir yaqqol ifodasi bo'ladi. Shuning uchun har bir mutasaddi bu vazifalarni o'z vaqtida, sifatli, halol-pok qilib bajarishi zarur.

Muhokamada dastlab mas'ullarning mazkur qaror mazmun-mohiyati bilan tanishganligi, reja va maqsadlar belgilanganligi holati ko'rib chiqildi. Mas'ullarga bir oy muddatda hududlar kesimida tegishli "Yo'l xaritasi" ishlab chiqish hamda ko'rib chiqish uchun xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga kiritish vazifasi topshirildi. Yo'l xaritalarini belgilangan mahalla va qishloqlar aholisi bilan bamaslahat ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Bundan tashqari, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish va xalqning xabardorligini oshirish maqsadida qaror doirasida amalga oshiriladigan ishlar, sarf-xarajatlari haqidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda hokimliklar veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirib borish, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish vazifasi berildi.



Viloyat hokimi takliflarini Sichuan gubernatori o'rinbosari ma'qulladi

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Xitoy Xalq Respublikasi Sichuan provinsiyasi gubernatori o'rinbosari Zuo Yunsyang boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Uchrashuvda Samarqand va Sichuan provinsiyasi o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Hududlararo aloqalarni chuqurlashtirish hamda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, turizm, ta'lim va boshqa sohalaridagi hamkorlik uchun mavjud salohiyatdan foydalanish istiqbollari e'tibor qaratildi.

Erkinjon Turdimov xitoylik mehmonlarga mamlakatimizda yaratilgan qulay tadbirkorlik va investitsion muhit, xorijlik ishbilamonlar uchun qo'llanilayotgan imtiyoz va perefereksiya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kafolatlari, erkin iqtisodiy zonalar haqida ma'lumotlar berdi. Shuningdek, Pa-

yariq va Ishtixon tumanlarida xitoylik investitorlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalarni muhokama etildi.

Sichuan provinsiyasi gubernatori o'rinbosari Zuo Yunsyang O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalari mustahkamlanib, o'zaro savdo aylanmasi hajmi oshib borayotganini ta'kidledi. Shuningdek, kimyo sanoati, transport, turizm, ta'lim, ilm-fan sohalarida hamkorlik imkoniyatlari kengayib borayotganligiga urg'u berdi. Shu bilan birga, viloyat hokimining takliflarini qo'llab-quvvatlashini va buning uchun hech qanday to'siq mavjud emasligini ta'kidledi.

Samarqandlik 9 nafar o'quvchi fan olimpiadasida g'olib bo'ldi

Samarqand shahrida ona tili va adabiyot, ingliz, nemis, fransuz tillaridan asosiy fan olimpiadasining IV respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Qolgan fanlardan Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublikamizning boshqa viloyatlarida o'tkazildi.

Olimpiada natijalariga ko'ra, ingliz tilidan Ishtixon tumanidagi 35-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mohinurxon Suyunova 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Ona tili va adabiyot fanidan Narpay tumanidagi 31-umumta'lim maktabi o'quvchisi Muxlisa Ne'matullayeva 2-o'rinni, nemis tilidan Samarqand shahar 51-IDUM o'quvchisi Aliakbar Akbarov va fransuz tilidan Ishtixon tumani 17-umumta'lim maktabi o'quvchisi Suhrob Musurmonovlar 3-o'rinni egalladi.

– O'tgan yili viloyatimizdan biror o'quvchi fan olimpiadasining respublika bosqichida o'rin ololmagandi, – dedi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqar-

masi bo'lim boshlig'i Xurshid Xojiqulov. – Bu yil to'qqiz nafar o'quvchi turli fanlardan g'oliblikni qo'lga kiritib, respublikada birinchi o'rinni egalladi. Bu natijaga erishish uchun avvalo, o'quvchilarni fan olimpiadalariga astoydil tayyorladik.

Asosiy fan olimpiadasining respublika bosqichida g'olib bo'lgan o'quvchilarga oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonida o'sha fandan maksimal ball beriladi. G'olib o'quvchilarning o'qituvchilariga bir yil mobaynida 100 foizlik ustama puli to'lanadi. Maktab direktorlari ham tegishli ravishda rag'batlantiriladi.

Xurshida ERNAZAROVA.



Ichki turizm imkoniyatlari namoyishi

Samarqand shahrida yurtimizda ichki turizmni rivojlantirish, turizm yo'nalishida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida "O'zbekiston bo'yab sayohat qil!" dasturi asosida ichki turizm yarmarkasi o'tkazildi.

Registon ansambli Mirzo Ulug'bek madrasasi hovlisida o'tkazilgan yarmarkada yurtimizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar ichki turizm bo'yicha o'z imkoniyatlarini namoyish etib, o'zaro hamkorlikni o'rnatish, turizmni rivojlantirish borasida takliflarini muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

– Faoliyatimiz ichki turizmga ixtisoslashgan, – deydi Farg'ona viloyatida faoliyat yurituvchi "Mashhura travel" oilaviy korxonasi rahbari E'ziza Rahmonova. – Dastlabki yillarda asosan bahor va yoz oylarida mijoz bo'lar edi,

qolgan vaqtda deyarli ish bo'lmasdi. Keyingi ikki yilda doimiy faoliyat bilan shug'ullanyapmiz. Soha rivoji uchun tizimda to'liq shaffoflik ta'minlansa, ichki turizm yanada rivojlanadi. Ayniqsa, transport tizimi bilan bog'liq chiptalar masalasi ijobiy yechim topsa, turfirmalar yanada samarali faoliyat yuritadi. Bugungi yarmarka ham hamkorlarimiz safini kengaytirib, o'zaro manfaatli turpaketlarni tashkil qilish imkonini yaratmoqda.

Yarmarkada samarqandlik hunarmandlar tayyorlagan milliy mahsulotlar namoyishlari tashkil qilindi.

A.ISROILOV.

1-APRELDan NIMALAR O'ZGARADI?

Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari majburiy ijrosi doirasida mol-mulkni shartnoma-vositachilik asoslarida sotish faqatgina mol-mulkni qabul qilishdan uni sotishgacha bo'lgan jarayonlarni masofaviy monitoring qilish elektron tizimini joriy qilgan savdo tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulk hamda avtotransport bilan bog'liq bitimlarni notarial tasdiqlashda qarzdorlik mavjudligi Yagona elektron tizim orqali onlayn tekshirilib, qarzdorlik bartaraf etilgach, notarial harakat amalga oshiriladi.

Barcha sanitar tozalash korxonalarini Yagona elektron tizim orqali xizmat ko'rsatadi, tizimga ulanmagan korxonalar bilan shartnoma bekor qilinadi va ular xizmat ko'rsatadigan hududlar davlat-xususiy sheriklik asosida boshqa korxonaga beriladi.

Chiqindi xizmatlari uchun to'lovlarni qabul qilish hamda abonentlar hisobini yuritish faqatgina Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi billing tizimi, elektron to'lov tizimlari yoki tijorat banklarining to'lov qabul qilish kassalari orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, chiqindi xizmatlari uchun oylik to'lovlardan qarzdorligi bo'lgan abonentlar SMS orqali xabardor qilib boriladi.

Davlat xaridlari doirasida chet ellik yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etganda ularga nisbatan import tovarlarining DDP (O'zbekiston) narxidan quyidagi miqdorlarda narx preferensiyasi beriladi:

- 3 ta va undan ortiq mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan taqdirda 15 foiz;
- 2 ta mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan taqdirda 12 foiz;
- 1 ta mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan taqdirda 8 foiz.

2026-yil 1-aprelgacha mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlar mehmonxonaning kamida 3 ta xonasini nogironligi bo'lgan shaxslar o'rindiqli aravachadan foydalanishi uchun qulay tarzda jihozlasa, shuningdek, eshitishi va ko'rishi uchun display hamda ovozli qurilmalar o'rnatasa, ularga har bir maxsus jihozlangan xona uchun quyidagi miqdorlarda subsidiya beriladi:

- yulduzli toifadagi mehmonxonalariga – 2 million so'm;
- yulduzli toifa olmagun mehmonxonalariga – 1 million so'm.

Tadbirkorlarga subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda joriy etiladi.

Yuk va yo'lovchilarni tashishda avtotransportlarga yo'l varaqalarini elektron rasmiylashtirish va yuritish tizimini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshiriladi.

Qaysi sohada qanday natija?



Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, jamiyat hayotining barcha jabhalarini liberallashtirish, davlat va jamiyatni demokratishtirishga qaratilgan islohotlar viloyatimiz iqtisodiyotida ham oʻz ifodasini topmoqda.

Dastlabki baholashlarga koʻra, 2023-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda 74,1 trillion soʻmni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 5,6 foizga oʻsdi. YHM tarkibida oʻtgan yilga nisbatan qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 4,4 foiz, sanoatning ulushi 5,8 foiz, qurilishda 8,9 foiz, savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarda 12,1 foiz, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarida 12,1 foiz va boshqa xizmat tarmoqlarida 3 foiz oʻsish qayd etildi. Kuzatilayotgan davrda iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushi 39,6 foiz, sanoatning ulushi 15,4 foiz, qurilishning ulushi 5,8 foiz, xizmatlar sohasining ulushi 39,2 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 2023-yilda aholi jon boshiga YHM hajmi joriy narxlarda 17,8 million soʻmni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 3,4 foizga oʻsdi.

Ushbu koʻrsatkichlar viloyatimiz iqtisodiyotini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini oʻstirishga yoʻnaltirilgan tarkibiy oʻzgartirishlarning samarasini koʻrsatmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatbardoshligini yanada oshirish islohotlar natijasini ifodalaydi.

SANOAT VILOYATNING ASOSIY DRAYVERI

Sanoat viloyatimizning muhim, zamonaviy qilib aytgan, drayver sohalaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimizning "2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida" gi farmonida milliy iqtisodiyot barqarorligini taʼminlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga alohida eʼtibor qaratilgan. Shuningdek, sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlashga ham alohida urgʻu berilgan.

Sanoat sohasida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar natijasida moʻpgina yutuqlarga erishilmoqda. 2023-yilning dastlabki maʼlumotlariga koʻra, viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 32,7 trillion soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi 5,8 foizga oshdi. Jumladan, eng yuqori ulush 96,2 foiz bilan qayta ishlash sanoati hissasi-ga toʻgʻri keldi. Shuningdek, jami sanoat ishlab chiqarish hajmida togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlab chiqarishning ulushi 1,4 foizni, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sanoatining ulushi 1,7 foizni, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish sanoatining ulushi 0,7 foizni tashkil etdi.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, sanoat ishlab chiqarishi oʻsishining asosiy omili boʻlib, qayta ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish hajmining oʻtgan yilga nisbatan 6,5 foizga hamda togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlab chiqarish sanoatida ishlab chiqarish hajmi 28,3 foizga oshganligi kuzatildi. Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilga nisbatan 14,1 foizga, shuningdek, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilga nisbatan 10,1 foizga oshdi.

QAYSI TUMAN SANOATIDA QANDAY NATIJA?

Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi viloyat boʻyicha 5,8 foizga oʻsgan boʻlsa, hududlar kesimida yuqori oʻsish Kattaqoʻrgʻon shahri (12,8 foiz), Ishitxon (10,3 foiz), Qoʻshrabot (8,5 foiz), Paxtach (8,3 foiz), Payariq (7,1 foiz), Bulungʻur (6,8 foiz), Oqdaryo (6,3 foiz) hamda Kattaqoʻrgʻon (6 foiz) tumanlarida kuzatildi. Bunday ijobiy oʻsish surʼatlariga erishishda 2023-yilda 1225 ta yangi tashkil etilgan sanoat korxonasi alohida oʻrni bor.

Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 325 ta, toʻqimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish sanoatida 183 ta, nonmetall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 127 ta, mebel ishlab chiqarish sanoatida 107 ta yangi sanoat korxonasi tashkil etildi. Buning natijasida 2023-yilda oʻzlashtirilgan jami investitsiyalarning qariyb yarmi, yaʼni 47,4 foiz aynan sanoat sohasini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga yoʻnaltirildi. Bu esa viloyatimizda import oʻrni bosuvchi va eksport-

bop mahsulotlar ishlab chiqarishga hamda qoʻshimcha ish oʻrinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotining doimiy oʻsishi anʼanaviy xomashyo tarmoqlari yoki jahon bozorida qulay konyunktura, ayrim xomashyo va materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, aksincha, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy xizmat koʻrsatish sohalari jadal hamda ustuvor rivojlantirish hisobiga taʼminlanmoqda. Qisqa qilib aytganda, sanoat ishlab chiqarishi sohasi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini oʻzaro muvofiqlashtirish va iqtisodiy tarmoqlari oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashga yordam beradi.

AGRAR TARMOQ ENG KOʻP AHOLINI BAND QILGAN

Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotning asosiy "oʻsish nuqtasi" va drayveri boʻlishi, sohada yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholining real daromadini oshirish maqsadida respublikamizda qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga moʻljallangan strategiyasi qabul qilindi. Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023-yil yakuni boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining umumiy hajmi 51,2 trillion soʻmni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 4,4 foizga oshdi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy hajmining 57,7 foizi dehqon va tomorqa xoʻjaliklari hamda 38,1 foizi fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Viloyatda boshqoq don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishni ragʻbatlantirish tizimi joriy etilgan ijobiy samara berdi. Jumladan, 2023-yilda viloyat boʻyicha jami 900,3 ming tonna (2022-yilga nisbatan 108,8 foiz) dardon va dukkakli don ekinlari yetishtirildi. Viloyatda meva-sabzavot, poliz, kartoshka va uzumni koʻpaytirish, agrotexnik tadbirlarni oʻz muddatida oʻtkazish, ulardan yuqori sifatli, eksportbop mahsulot yetishtirish boʻyicha tizimli ishlar olib borildi. Bogʻdorchilik va uzumchilikni rivojlantirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar asosida intensiv mevali bogʻ va tokzorlarni barpo etish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Natijada viloyatda 1,6 million tonna (102,8 foiz) sabzavot, 726,3 ming tonna (104,8 foiz) kartoshka, 172,1 ming tonna (106,7 foiz) poliz hamda 373,4 ming tonna (104,8 foiz) meva yetishtirildi.

Davlatimiz rahbarining qaroriga asosan ijtimoiy daftarlardagi fuqarolarni ish bilan taʼminlash uchun ularga 0,1 gektardan 1 gektargacha yer maydonlari ajratib berilmoqda. Ushbu yerlarda yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni rasmiy statistikada toʻliq aks ettirish maqsadida 4-daftar (choraklik) hisoboti joriy etildi.

Qayd etish lozimki, aksariyat turdagi dehqonchilik mahsulotlari dehqon va tomorqa xoʻjaliklari tomonidan yetishtirilmoqda. Jumladan, joriy davrda kartoshkaning umumiy hajmiga nisbatan 57,6 foiz, sabzavotning 42,1 foizi, mevalarning 45,4 foizi ular tomonidan yetishtirildi. Don va dukkakli don ekinlarining esa 87 foizi fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri keldi.

Chorvachilik va baliqchilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatib kelinayotganligi ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik va baliq mahsulotlari bilan taʼminlashga imkon yaratadi.

Joriy davrda viloyat boʻyicha tirik vaznda jami goʻsht ishlab chiqarish hajmi – 326,2 ming tonnani (2022-yilga nisbatan 103,6 foiz), sut 1,4 million tonnani (102,4 foiz), tuxum 1 312,5 million donani (101 foiz) hamda baliq – 18 ming tonna (104 foiz) ni tashkil etdi.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish koʻrsatkichlarining xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlili shuni koʻrsatdiki, tirik vazndagi goʻshtning umumiy hajmidan 77 foiz, shuningdek, sutning 90,3 foizi hamda tuxumning 47,2 foizi dehqon va tomorqa xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri keldi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga viloyatda yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1,7 million boshni (2023-yilning mos davriga nisbatan 40,5 ming boshga koʻp), qoʻy va echklar 2,7 million boshni (52,2 ming boshga koʻp) va parranda 15,3 million boshni (1 million boshga koʻp) tashkil etdi.

Qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga moʻljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarning tizimli amalga oshirilishi, paxta va gʻalladan boʻshagan maydonlarda eksportbop, ichki va tashqi bozorda talab katta boʻlgan ekinlar ekish, shuningdek, tomorqa maydonlari samarasini oshirishga qaratilgan ishlarning yanada kuchaytirilishi kelgusi yillarda qishloq xoʻjaligi tarmogʻining yanada rivojlanishiga zamin yaratadi.

XIZMATLAR SOHASI IQTISODIYOTNING SERDAROMAD YOʻNALISHI

Viloyatimiz iqtisodiyotida xizmat koʻrsatish sohasining ulushini oshirish, joylarda mavjud imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish, xizmatlar turini kengaytirish va sifatini oshirishga eʼtibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi qarori asosida moliya sektoriga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi texnologiyalarni joriy etish va logistikani takomillashtirish orqali transport sektorini modernizatsiya qilish nazarda tutilgan. Shuningdek, IT sohasini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berish va startaplar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish boʻyicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Turizm sohasini rivojlantirishga katta mablagʻ sarflanmoqda.

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilda koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi 29 trillion soʻmni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 13,7 foizga oʻsdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining oʻsishiga yashash va ovqatlanish xizmatlarni 30,9 foizga, taʼlim sohasidagi xizmatlarni 27,9 foizga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 21,4 foizga, moliyaviy xizmatlarning 15,5 foizga oʻsishi ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

INVESTITSIYA IQTISODIYOTNING QON TOMIRI

2023-yilda viloyat boʻyicha jami 26,6 trillion soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirilib, bu koʻrsatkich 2022-yilga nisbatan 132,1 foizni tashkil etdi. Taʼkidlash joizki, mazkur yuqori oʻsish markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan taʼminlandi.

Viloyatning hududlari boʻyicha asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar geografiasini koʻradigan boʻlsak, investitsiyalar hajmi boʻyicha eng yuqori Kattaqoʻrgʻon tumani 6,3 trillion soʻm yoki viloyat boʻyicha hajmining 23,7 foizi, Samarqand shahri 5,9 trillion soʻm yoki viloyat boʻyicha hajmining 22,2 foizi hamda Samarqand tumani 4,3 trillion soʻm yoki viloyat boʻyicha hajmining 16,2 foizini tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilga nisbatan eng yuqori oʻsish surʼatlari Paxtach (149,1) foiz, Ishitxon (144 foiz), Past Dargʻom (140 foiz) va Narpay (138,1) foiz tumanlarida kuzatildi.

QURILISLAR YIL SAYIN OʻSMOQDA

Qurilish iqtisodiyotning bir qismi sifatida boshqa tarmoqlar uchun asosiy fondlarni yaratish va modernizatsiya qilishda ishtirok etadi va shuning uchun asosiy fond yaratuvchi tarmoq hisoblanadi.

Oʻtgan yil viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 10,1 trillion soʻmni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 8,9 foizga koʻpaydi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmini iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha tahlil qilganda, fuqarolik obyektlari qurilishining ulushi 61,9 foiz yoki 7 trillion soʻmni, bino va inshootlar qurilishi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlari 27,9 foiz yoki 2,8 trillion soʻmni hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 3 foiz yoki 297,1 milliard soʻmni tashkil qildi.

Qurilish faoliyatini olib boruvchi korxonalar va tashkilotlarning soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga 2530 tani tashkil qilib, qurilish sohasi tomonidan yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat viloyatimiz yalpi hududiy mahsulotida 5,8 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining viloyatimiz hududlari boʻyicha taqsimlanishida Samarqand shahrining ulushi eng katta koʻrsatkichga ega boʻldi. Mazkur hududda 2,6 trillion soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan, 2022-yilga nisbatan eng yuqori oʻsish surʼatlari Urgut (163 foiz), Narpay (133,5) foiz, Kattaqoʻrgʻon (128,1 foiz), Ishitxon (119,6) foiz va Jomboy tumanlarida (117,5) foiz qayd etildi.

Olib borilayotgan samarali chora-tadbirlar samarasi oʻlaroq barqaror oʻsib borayotgan qurilish ishlari natijasida qator quvvatlar va ijtimoiy soha obyektlari barpo etilmoqda.

TASHQI SAVDO: HANKORLAR 106 TAGA YETDI

Keyingi yillarda mahalliy eksport qiluvchi korxonalarini qoʻllab-quvvatlash va eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini taʼminlash maqsadida imtiyoz va afzalliklarning kompleks tizimi yaratildi. Eksport qiluvchi korxonalariga, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlariga mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish, ularni tashqi bozorlarga olib chiqishga koʻmaklashish boʻyicha ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etildi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2023-yilda viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2,9 milliard dollarga yetdi va 2022-yilga nisbatan 500 million dollarga yoki 21,1 foizga oshdi.

Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 746,2 million dollarga (17,2 foizga koʻpaydi) va import hajmi 2,1 milliard dollarga (22,6 foizga) yetdi. Hisobot davrida 1,4 milliard dollar qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

Viloyatimiz jahonning 106 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (24,7 foiz), Rossiya Federatsiyasi (22,4 foiz), Qozogʻiston (10,5 foiz), Turkiya (7,4 foiz), BAA (2,9 foiz), Tojikiston (2,5 foiz) va Ozarbayjon (2,3 foiz) hissasiga toʻgʻri keldi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberalashtirish, eksportga mahsulot yetkazishni ragʻbatlantirish, mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarning raqobatdoshligini va moliyaviy barqarorligini oshirishga imkoniyatlar yaratildi. Oritqicha va eskirgan ruxsat berish tartiblarini bekor qilish orqali ishlab chiqarishni mahalliy yashil natijasida eksportyorlar soni 640 taga yetdi va ular tomonidan 746,2 million dollar qiymatidagi (oʻsish 17,2 foiz) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Sharof ABDIYEV,
viloyat statistika boshqarmasi boshligʻi.

Yoʻq, bu davlat rahbari oʻtkazgan yigʻilish xulosasi emas. Bu haqda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyada soʻz yuritildi. Aniqlik, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi viloyat boshqarmasi taqdim qilgan hisobotdan soʻng shunday xulosaga kelindi. Deputatlar qabul qilgan qarorda mu-tasaddilarga "Hokimlik va tashkilot bogʻlari" toʻliq tashkil qilinmaganligi koʻrsatib oʻtilib, kelgusi vazifalar belgilab berildi.

Hokimlik va tashkilot bogʻlari boʻlishi shart

RAQAMLAR SALMOQLI, SAMARA-CHI?

Sessiyada berilgan hisobotga koʻra, oʻtgan yili bahorda 10 million 364 ming tup, kuz faslida 7 million 323 ming tup mevali va manzarali, buta koʻchatlari ekilgan.

Koʻrinadiki, "Yashil makon" umummilliy loyihasi boʻyicha belgilangan reja (16,3 million) viloyatda 103 foizga bajarilgan. Deputatlar bu hisobotdan toʻla qoniqish hosil qilmagan boʻlsa-da, galdagi muhim vazifalarga eʼtiborli boʻlishni qarorda belgilab qoʻyishdi.

Xususan, shahar va tuman hokimliklariga "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joriy yil bahor va mavsumida ekilishi lozim manzillik koʻchat turlari va rejai boʻyicha manzilli dastur ishlab chiqish topshirildi. Oʻz navbatida bu dastur boʻyicha rejaning bajarilishini, sohalar tomonidan koʻchat ekish rejasiga qoʻshib yozish holatlariga yoʻl qoʻyilmasligini qatʼiy nazoratga olish koʻzda tutildi.

Darvoqe, raqamlar salmogʻi haqida – hisobotga koʻra, Oqdaryo tumanida viloyat prokuraturasi tomonidan 20 gektar yer maydonda "yashil bogʻ" barpo etilib, tomchilatib sugʻorish tizimi yaratilgan.

JOʻJANI KUZDA SANAYIMIZ

Mayli, yer qay tartibda ajratilgan va boshqa masalalar oʻz yoʻliga. Ammo Oqdaryo tumanining nomi aytilmagan mahallasidagi bu bogʻ ayni vaqtda kimning nomida boʻlsa?

Qiziq tarafi "Yashil hudud" DUK tomonidan qonun nazoratchilaridan biroz koʻproq 28,4 gektar maydonda "Yashil bogʻlar" barpo etgan. Kamiga ular yaratgan bogʻlar viloyatning 7 ta hududi - Samarqand shahar, Urgut, Nurobod, Samarqand, Payariq, Narpay va Jomboy tumanlarida joylashgan.



Hisobotda keltirilishicha, shahar va tumanlar tashkil qilgan bogʻlar jilla qursa, oʻrtacha bir gektardan toʻgʻri kelmaydi: jami 15,6 gektar maydonda hokimlik bogʻlari yaratilgan.

Yaqin kunlarda mustaqil boʻlishi rejalashtirilayotgan Kengashdan bu masalada dadillik kuzatilmagani hayratlanarli. Axir davlat rahbari emasmi, 34 ta bogʻ boʻlishi belgilab bergan? Nahot shu ishni oxiriga yetkazib qoʻyishni soʻrash shu qadar qiyin boʻlsa. Axir kelayotgan kuzda bu masala boʻyicha belgilangan muddat tugaydi-ku!

Aslida, garchi berilmagan boʻlsa-da, aniqlashtirilishi kerak boʻlgan savollar bisyor.

YAXSHI GUMONDA BOʻLAVERAMIZ...

Hisobotga tayanilsa, 2023-yilda oʻrmonzor va butazorlar maydoni 2703,5 gektarga kengaytirilgan.

Oʻtgan yili viloyat hududidan yigʻib olingan 735,9 ming tonna chiqindining 264,9 ming tonnasi 24 ta korxonada qayta ishlangani ham yaxshi umid beradi. Zotan, bu borada 2020-yilda 22,1 foz maishiy chiqindi qayta ishlangani holda oʻtgan yili koʻrsatkich 36 foizni tashkil etgan.

Bundan tashqari, qattiq maishiy chiqindilarni «Nol chiqindi» tamoyili doirasida toʻliq utilitatsiya qilish tizimi bosqichma-bosqich tatbiq etiladi. Shu maqsadda yiliga 110 ming tonna chiqindini yoqish evaziga 1440 mVt soat issiqlik energiyasi va 500 mVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda.

Loyihani amalga oshirish boʻyicha Janubiy Koreyaning "GRACE HIGH TECH Co.Ltd" kompaniyasining "GRACE HIGH TECH SAMARKAND" QQ masʼuliyati cheklangan jamiyati roʻyxatdan oʻtkazilgan. Bugungi kunda texnik-iqtisodiy loyiha ishlab chiqilmoqda.

Garchi aksar hollarda "bizda hammasi yaxshi", deyilayotgan boʻlishiga qaramay, oʻtgan yili 20 ta yirik sanoat korxonasida chang-gazlarni ushlab qoluvchi 82 dona filtr oʻrnatilgan. Natijada atmosferaga 95,5 tonna tashlama tashlanishining oldi olingan. Bu yil 10 ta korxonada oʻrnatiladigan 28 filtr taxminan 120 tonnadan ortiq (bulturgidan koʻp) tashlamalar bilan havo ifloslanishining oldini oladi.

...Ommatan maqola xulosa bilan yakunlanadi. Biz bu vazifani zukko oʻquvchining oʻziga qoldiramiz.

Y.MARQAYEV.

“SamIT Global” kompaniyasi IT sohasida xorij kompaniyalari bilan hamkorlik qiladi

O'zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligi va IT park tomonidan viloyatlarda «Offshore Outsourcing Tour-2024» xalqaro tadbir o'tkazilmoqda.

Samarqand shahrida o'tkazilgan tadbirda 30 dan ortiq mamlakatning 150 kompaniyasidan 200 nafar xorijlik mutaxassis O'zbekistonda IT-outsorsing bozorini o'rganish borasida fikr almashdi.

Tadbir doirasida IT park xodimlari tomonidan mehmonlar uchun O'zbekistonda kompaniya ochish jarayoni haqida taqdimot o'tkazildi.

- Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan «O'zbekiston-2030» strategiyasiga muvofiq, yoshlar o'rtasida IT

sohasini yanada ommalashtirish hamda xizmatlar eksportini oshirish maqsadida 300 ming nafar yoshni ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan, - deydi IT-park Samarqand hududiy filiali direktori Sherzod Yusupov. - Yurtimizda mahalliy va chet el IT kompaniyalarining faoliyat boshlashi ushbu strategiyaning amaliy natijasini ko'rsatishga yordam beradi. Shuningdek, kadrlar malakasi oshadi, soha rivojlanadi va jahon texnologiyalari mamlakatimizda ham bo'y ko'rsatadi.

Tashrif davomida xorijlik mutaxassislar “SamIT Global” logistika, IT-ta'lim va sug'urta sohalariga ixtisoslashgan kompaniyaning Samarqand shahridagi ofisida ham bo'lib, ish jarayonlari bilan tanishdi, kompaniya tajribasi o'rganildi.

F.RO'ZIBOYEV.

Yoshlar tabiatga befarq emas

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Eko-dizayn” mavzusida ishlanmalar ko'rgazmasi tashkil etildi.

Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasida tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur ko'rgazmada universitet talabalari atrof-muhit muhofazasi, ekologik muammolarning bar-taraf etilishi aks ettirilgan ijod namunalari bilan ishtirok etishdi.

Ko'rgazmada noan'anaviy energiya man-balaridan foydalanish, ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga ta'siri, “Yashil makon”, biologik xilma-xillikni shakllantirish hamda

hayvonot va o'simlik dunyosining muhofazasi kabi mavzulardagi turli ijod mahsullari namoyish etildi. Ayniqsa, Sh.Hamdov, A.Shamsiyeva O'. Qilicheva kabi iqtidorli talabalar tomonidan ishlangan asarlar e'tirof etildi.

Ushbu ko'rgazmani tashkil etishdan maqsadimiz talaba-yoshlarda atrof-muhitni muhofaza qilish, uni asrash kabi tuyg'ulariga ilmiy va ijodiy yondashuvni tashkil etish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini ta'minlashdan iborat edi. Namoyish etilgan ishlanmalar o'quv-mashg'ulot darslarida zamonaviy davlat standartlari dasturlari doirasida dars o'tishni tashkillashtirgan holda foydalaniladi.

Gulmira KELDIYOROVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

QUYIDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA BO'SH LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:

- Zoologiya kafedrasida (fan doktori, professor).
- O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida (fan doktori, professor).
- Fizikaviy va kolloid kimyo kafedrasida (fan doktori, professor).
- Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasida (fan doktori, professor).
- Fakultetlararo rus tili kafedrasida (dotsent).
- Rus va umumiy tilshunoslik kafedrasida (PhD).
- Sport faoliyati kafedrasida (dotsent).
- Fakultetlararo pedagogika kafedrasida (fan nomzodi, professor).

KAFEDRA PROFESSORI LAVOZIMIGA:

- Botanika kafedrasida - 2 stavka.
- O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida - 1,5 stavka.
- Noorganik kimyo va materialshunoslik kafedrasida - 1,0 stavka.
- Yadro fizikasi va astronomiya kafedrasida - 0,5 stavka.
- Nazariy fizika va kvant elektronikasi kafedrasida - 1,0 stavka.
- Nazariy va amaliy mexanika kafedrasida - 0,5 stavka.
- Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasida - 1,0 stavka.
- Matematik analiz kafedrasida - 1,0 stavka.
- Matematik fizika va funksional analiz kafedrasida - 1,0 stavka.
- Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedrasida - 1,0 stavka.
- Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasida - 0,5 stavka.
- O'zbek tilshunosligi kafedrasida - 1,0 stavka.
- San'atshunoslik kafedrasida - 1,0 stavka.
- Falsafa va milliy g'oya kafedrasida - 1,0 stavka.

KAFEDRA DOTSENTI LAVOZIMIGA:

- Zoologiya kafedrasida - 1,75 stavka.
- Botanika kafedrasida - 4,0 stavka.
- O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida - 1,0 stavka.
- Odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyo kafedrasida - 1,0 stavka.
- Organik sintez va biorganik kimyo kafedrasida - 1,0 stavka.
- Analiy kimyo kafedrasida - 2,0 stavka.
- Fizikaviy va kolloid kimyo kafedrasida - 2,0 stavka.
- Umumiy fizika kafedrasida - 1,75 stavka.
- Qattiq jismlar fizikasi kafedrasida - 3,0 stavka.
- Nazariy va amaliy mexanika kafedrasida - 3,0 stavka.
- Raqamli iqtisodiyot kafedrasida - 1,0 stavka.
- Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasida - 2,0 stavka.
- Agrokimyo va o'simliklarni himoya qilish kafedrasida - 1,0 stavka.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Azimov Naimga (2020-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Yunusov Iloxim Ibragimovichga (2022-yil 11-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebunis ko'chasi, 4-"A" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Norbayeva Sharbatga (2021-yil 31-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Avalov G'ulom

Kodirovichga (2023-yil 22-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Soy Vladimir Nikolayevichga (2022-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Soy Tatyana Vladimirovna (2023-yil 26-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Xasanova Shaxraga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddin

- Matematik analiz kafedrasida - 1,25 stavka.
- Algebra va geometriya kafedrasida - 1,25 stavka.
- Differensial tenglamalar kafedrasida - 1,0 stavka.
- Matematik fizika va funksional analiz kafedrasida - 0,75 stavka.
- Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedrasida - 1,0 stavka.
- Matematik modellashtirish kafedrasida - 3,0 stavka.
- Sun'iy intellekt va axborot tizimlari kafedrasida - 2,0 stavka.
- Dasturiy injiniring kafedrasida - 1,0 stavka.
- Gidrometeorologiya kafedrasida - 1,0 stavka.
- Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasida - 1 stavka.
- Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasida - 1 stavka.
- O'zbekiston tarixi kafedrasida - 2 stavka.
- Jahon tarixi kafedrasida - 1 stavka.
- Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida - 0,75 stavka.
- Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasida - 1 stavka.
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida - 1 stavka.
- O'zbek tilshunosligi kafedrasida - 1 stavka.
- Rus va chet el adabiyoti kafedrasida - 1 stavka.
- Fakultetlararo rus tili kafedrasida - 1 stavka.
- Sport faoliyati kafedrasida - 2 stavka.
- Maxsus huquqiy fanlar kafedrasida - 1 stavka.

KAFEDRA KATTA O'QITUVCHISI LAVOZIMIGA:

- Analiy kimyo kafedrasida - 1,0 stavka.
- Sun'iy intellekt va axborot tizimlari kafedrasida - 1,0 stavka.
- Rus va chet el adabiyoti kafedrasida - 1,0 stavka.
- Fakultetlararo rus tili kafedrasida - 1,75 stavka.
- Ingliz va roman-german tillari kafedrasida - 8,0 stavka.

KAFEDRA ASSISTENTI LAVOZIMIGA:

- O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida - 1,0 stavka.
- Genetika va biotexnologiya kafedrasida - 2,0 stavka.
- Analiy kimyo kafedrasida - 1,0 stavka.
- Fizikaviy va kolloid kimyo kafedrasida - 2,0 stavka.
- Noorganik kimyo va materialshunoslik kafedrasida - 2,0 stavka.
- Optika va spektroskopiya kafedrasida - 1,0 stavka.
- Yadro fizikasi va astronomiya kafedrasida - 1,0 stavka.
- Nazariy fizika va kvant elektronikasi kafedrasida - 1,0 stavka.
- Nazariy va amaliy mexanika kafedrasida - 2,0 stavka.
- Inson resurslarini boshqarish kafedrasida - 2,0 stavka.
- Agrokimyo va o'simliklarni himoya qilish kafedrasida - 6,0 stavka.

- Tuproqshunoslik va agrotexnologiya kafedrasida - 0,5 stavka.
- Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasida - 1,0 stavka.
- Matematik analiz kafedrasida - 1,0 stavka.
- Algebra va geometriya kafedrasida - 1,75 stavka.
- Differensial tenglamalar kafedrasida - 0,75 stavka.
- Matematik fizika va funksional analiz kafedrasida - 3,0 stavka.
- Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedrasida - 3,0 stavka.
- Kompyuter ilmlari va texnologiyalari kafedrasida - 2,0 stavka.
- Sun'iy intellekt va axborot tizimlari kafedrasida - 2,0 stavka.
- Dasturiy injiniring kafedrasida - 3,0 stavka.
- Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasida - 1,0 stavka.
- Gidrometeorologiya kafedrasida - 2,0 stavka.
- Ekologiya va hayotiy faoliyat xavfsizligi kafedrasida - 3 stavka.
- O'zbekiston tarixi kafedrasida - 3 stavka.
- Arxeologiya kafedrasida - 2 stavka.
- Jahon tarixi kafedrasida - 3 stavka.
- Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasida - 3 stavka.
- Samarqand tamadduni tarixi kafedrasida - 2 stavka.
- Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida - 1 stavka.
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida - 1 stavka.
- Rus va chet el adabiyoti kafedrasida - 2 stavka.
- Fakultetlararo rus tili kafedrasida - 0,75 stavka.
- Ingliz va roman-german tillari kafedrasida - 3,75 stavka.
- San'atshunoslik kafedrasida - 2,0 stavka.
- Fakultetlararo pedagogika kafedrasida - 5,0 stavka.
- Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida - 2,0 stavka.
- Maxsus huquqiy fanlar kafedrasida - 1,0 stavka.

TALABGORLAR TANLOVDA QATNASHISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLARNI TAQDIM ETISHLARI LOZIM:

- Rektor nomiga ariza.
 - Xodimlarni hisobga olish bo'yicha so'rovnoma.
 - Oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlari, ilmiy unvoni haqidagi attestati nusxalari.
 - Tasdiqlangan ilmiy ishlari ro'yxati.
 - Malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikat.
- Hujjatlar gazetada e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy ichida qabul qilinadi.

MANZIL: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining to'qqiz qavatli binosi, 312-xona, universitet Kengashi kotibi. Telefon: +99866-240-38-48.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Shelkovo Agroxim - O'zbekiston” Rossiya - O'zbekiston qo'shma korxonasi 2023-yildagi moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun auditorlik firmalari o'rtasida

TENDER E'LON QILADI!

Tenderda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- Auditorlik firmasining davlat ro'yxatidan o'tganligi haqidagi guvoohnomasining nusxasi.
- Auditorlik firmasiga belgilangan tartibda berilgan litsenziyaning nusxasi.
- Auditorlik firmasi auditorlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarining nusxasi.
- Auditorlik firmasi bilan tuziladigan “Auditorlik xizmati ko'rsatish to'g'risida”gi shartnomaning loyihasi.

Murojaat uchun manzil: Nurobod tumani Sazag'on massivi. “Urgut erkin iqtisodiy zoni” hududi. Telefonlar: +99891-538-09-78, +99891-544-82-52.

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi «QORASUV PAXTA DALASI» fermer xo'jaligining (STIR: 302781602) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi “PAYARIQ G'ISHTLARI - SSHA” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306351263) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti Samarqand viloyat boshqarmasi rahbariyati boshqarma bosh mutaxassisi Nigora Jabborovaga onasi **Mohira JABBOROVA**ning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Mulohaza



Amir Temur va Tojmahal

maqbaralarini birlashtiruvchi rishta

Musulmon mamlakatlari, shu jumladan, yurtimizda ham qadimda maqbaralar asosan olim va ulamolar qabrlari ustida qurilgan. Bu ish ularning qarindosh-urug'lari tomonidan emas, hukmdorlar va ba'iz badavlat kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Ana shu an'anadan xalqimizning ilm ahliga qanchalik hurmat va ehtirom ko'rsatganini bilish mumkin.

Lekin yurtimizda shohlar qabri ustida barpo etilgan maqbaralar bor. Masalan, Buxoro shahridagi mo'g'ullar bosqinidan oldin qurilib hozirgacha saqlanib turgan Buxoro shohi Ismoil Somoniy qabri ustigi maqbarani misol keltirishimiz mumkin. Yana Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi tarkibida ham shohlar oilasiga mansub maqbaralar bor.

Bular ichida Samarqanddagi Amir Temur maqbarasi olti yuz yildan beri o'zining betakrorligi va me'moriy yechimi bilan barchani hayratga solib kelmoqda. Ushbu maqbara 1404-yil Amir Temur farmoniga muvofiq 1403-yili urushda olgan jarohati tufayli halok bo'lgan sevimli nabirasi Muhammad Sulton qabri ustida qurilgan. Ko'p o'tmasdan, 1405-yil Xitoyga yurish vaqtida yo'lda vafot etgan Sohibqiron Amir Temur ham hali qurib bitkazilmagan shu maqbarada dafn qilingan. Keyinchalik bu yerda Mironshoh, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek hamda temuriy shahzodalar Sulton Muhammad Mirzo, Abdullo Mirzo, Abdurahmon Mirzolar jismi qo'nim topgan. Shohruh Mirzo amri bilan bu yerda Amir Temurning ma'naviy ustoz-piri Mir Said Baraka tuprog'i keltirilib ko'milgan.

Endi maqola sarlavhasida keltirilgan ikkinchi maqbara, ya'ni Hindiston hukmdori Shoh Jahon tomonidan 1632-1653-yillarda, 1631-yil vafot etgan suyuqli rafiqasi Mumtoz Mahal (Arjumandbonu) sharafiga qurilgan mashhur Tojmahal maqbarasi haqida so'z yuritamiz. Oq marmardan barpo etilib, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan

ushbu maqbara salkam to'rt yuz yildan beri barcha sayyohlarni maftun etib kelmoqda. Ushbu maqbarada Mumtoz Mahaldan tashqari 1666-yilda dunyodan o'tgan imperator Shoh Jahonning o'zi ham dafn etilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Dehli shahrida yana bir boburiy hukmdor Muhammad Humoyun qabri ustida oldinroq, ya'ni 1562-1571-yillarda qurilgan maqbara ham bor.

Xo'sh, dunyoning ikki chekkasidagi ushbu ikki bebaho me'moriy obidani bitta maqolada yoritishimizning sababi nima? To'g'ri, maqbaralarning tashqi ko'rinishida oz bo'lsa-da, o'xshashliklar bor: ikkala maqbarada ham asl qabrlar pastki xonada joylashgan. Har ikkala maqbara ham YUNESKO tomonidan ro'yxatga olingan. Lekin bularning hammasi asosiy sabab emas. Bu ikkala ajoyib arxitektura durdonasi asli kelib chiqishi O'rta Osiyolik aniqrog'i, o'zbekistonlik bo'lgan temuriylar sulolasi va ularning Hindistondagi davomchisi boburiylar sulolasi hukmdor vakillari tomonidan qurdirilgan. Shu yerda gidlarimiz ushbu faktni isboti sifatida imperator Shoh Jahonning otasi bo'lgan Hindiston hukmdori Jahongir (1605-1627-yillarda hukmdorlik qilgan) tomonidan Samarqandga o'zining bobokaloni bo'lgan Amir Temurning maqbarasini restavratsiya qilish uchun juda katta moddiy boylik yuborilganini aytib o'tish joiz. Bu fakt ayniqsa, hindistonlik sayyohlarni lol qoldirgan bo'lardi.

Rustam VAFOYEV,
Samarqand tumani.

SAMIMIYAT – boricha yashash

O'ktam Saidmurodov tabiatan samimiy inson. Bu fazilat ota-onasidan o'tganmi, o'zi tug'ilib, voyaga yetgan qutlug' tuproq – Bog'i Maydon ulug'lari ruhidan o'tganmi yoki iqtidori, ishtiyiqi tufayli jamiyatdan o'zlashtirganmi, buning ahamiyati yo'q. U bor-boricha yashab kelyapti.

Misol uchun, bu insonning biror joyda rahbarlarga tilyog'lamalik qilganini, birovnig ustidan g'iybat yog'dirganini eshitmaganmiz: yoki jim turadi, yo kerakli gapini asta qulog'iga aytadi. Hadeganda o'zini har joyga uraveradigan odati ham yo'q. Shuning uchun bo'lsa kerak, bugun u Samarqand ziyolilarining faxri, siyosatchi va tadbirkor sifatida tanilgan.

O'.Saidmurodov siyosatchi, tadbirkor bo'lsa-da, ko'p kitob o'qishi tufayli boshqa hamkasblari, men bilgan tengdoshlari orasida ajralib turadi. Qolaversa, otasi Saidmurod aka arab alifbosidagi kitoblarni qiynalmay o'qir, kitobga mehri baland inson bo'lgan. Onasi Kubarro opani ham ilmparvar, mehnatsevar ayol bo'lganini aytishadi. Ular ana shu fazilatlarini tufayli ham sakkiz nafar farzandni halol luqma bilan katta qilib, o'qitib, elga qo'shdi.

Bog'i Maydondagina emas, Samarqand shahrida, hatto viloyatimizning aksariyat tumanlarida O'ktam Saidmurodovning nomi doimo dilkash, odamoxun, bag'rikeng inson sifatida tilga olinadi. O'zim bunga ko'p guvoh bo'lganman. Chunki u xizmat yuzasidan qaysi bir tumanga, qishloqqa bormasin, albatta, tanish orttirib keladi, odamlarga foydali maslahat berishdan, yordam ko'rsatishdan erinmaydi.

O'.Saidmurodov bilan viloyat partiya qo'mitasida birga ishladi, buning ustiga qo'shni yashadik, bir-birimizning ishimizdan, oilamizdagi sharoitimizdan xabardor bo'lganmiz. Manzuraxon va farzandlari bizning oila bilan yaqin bo'lib ketishgan. Hozir boshqa mahallalarda yashasak-da, bordi-keldi qilamiz, bolalarimiz bir-birlari bilan qadrdon.

Ana shu jarayonda, shu yillar ichida kamina O'ktamni ko'p bor kashf qildim. Undagi qat'iyatlilik, muhimi, bilimlilik, professionalizm ko'pchilikni unga murojaat qilishga undardi.

Ayniqsa, diplomatiya masalasida viloyatimizda tanilgan shaxslardan, desam adashmayman: har kim bilan uning saviyasida gaplasha oladi, tillasha oladi. Xorijiy mutaxassislar bilan ham juda yaxshi munosabat o'rnatgan. Umuman, ochig'ini ayta qolay, o'tgan yillar davomida biror kishidan do'stim haqida salbiy fikr eshitmadim.

O'ktam turli davrda murakkab xarakterli rahbarlar bilan ishladi. Ammo hammasiga ma'qul tushdi, chunki u qulluqchi emas, tartibli ijrochi, o'ziga topshirilgan ishni qoyilmaqom qilib uddalaydi, buning ustiga, ishni yanada yaxshilash yuzasidan takliflar bera oladi. Tashabbuskorligi ham yo'q emas. O'ktam respublikada birinchilardan bo'lib yosh tadbirkorlarni tarbiyalash va o'qitishga kirishdi. 20 nafar yigit-qiz uning korxonasida kasbni, ishni, tadbirkorlik yuritishni o'rgandi. Hozir



shogirdlarining aksariyati mustaqil faoliyat yuritmoqda. O'.Saidmurodov mustaqillik boshidayoq maktablar uchun zamonaviy jihozlar va laboratoriyalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Mahallalarda sport maydonchalari tashkil etib, trenajyorlar o'rnatdi. Eh-he, bunday tashabbuslarni yana ko'plab davom ettirish mumkin.

O'.Saidmurodov xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati sifatida ham xalqning ishongan vakillaridan biri hisoblanadi. O'z saylov okrugi hududi Jomboyda muntazam bo'lib, saylovchilar bilan muloqot o'tkazadi, sessiyalarda faol, doimiy komissiya raisi sifatida dolzarb masalalarni sessiyaga olib chiqishda tashabbus ko'rsatadi. Shuning uchun boshqa deputatlar undan hamisha maslahat so'rashadi.

Bu inson oilasiga, do'stlariga, quda-andalariga munosabatda ham barchamizga ibrat, chunki u oqibatni birinchi o'ringa qo'yadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, har qancha rad qilmasin, uni davraning to'riga o'tkazishga harakat qilamiz.

Oilaga e'tibor, hurmat, farzandlar oldidagi burchni his qilishda ham bu kishiga havas qilsa arziydi. Manzuraxon bilan birga ikki qiz, bir o'g'lini ilmi, jamiyatga munosib insonlar etib kamolga yetkazdi. Hozirgi kunda 7 nevara, 4 evaraning suyuqli bobo-buvilari zamonaga shukrona aytib yashashmoqda.

Bugun 70 yoshini qarshilab, hamon yigitlardek g'ayrat-shijoat bilan ishlayotgan, jamiyatda munosib o'rinni topgan do'stimizni qutlug' yosh bilan tabriklab, unga mustahkam sog'liq, oilaviy xotirjamlik tilaymiz.

Farmon TOSHEV.

Sumalak – ming dardga davo, uni qadimdan bahor taomi sifatida sevib iste'mol qilamiz. Lekin uning qaysi dardlarga shifoli haqida aniq dalillarga asoslangan tavsiya va ko'rsatmalar nihoyatda kam. Sumalakning tarkibi nimalardan iborat, uni kimlar iste'mol qilishlari mumkin, qaysi kasalliklarga chalingan bemorlarga shifo bo'ladi, qaysilariga tavsiya etilmaydi?

Taom tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash qiyin, chunki u uzoq vaqt qaynatilganligi sababli tarkibidagi vitaminlar parchalanib, kamayib ketadi ammo uglevod, oqsil va yog' miqdori saqlanib qoladi. Demak, uning shifoli tabiiy uglevod, oqsil, yog' va mikroelementlar miqdori bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tarkibidagi mikroelementlar o'rganilganida unda nafaqat to'yimli moddalar, balki organizm uchun eng zarur bo'lgan minerallar ko'pligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, xlor va natriy elementlari juda ko'p. Xlor ko'pligi bois uni oshqozon shirasi me'yordan ko'p bo'lgan kishilarga, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yara-

Sumalak – bahoriy taom

Uning shifobaxshligi haqida nimalarni bilamiz?



si bo'lgan bemorlarga tavsiya etishda ehtiyot bo'lgan ma'qul. Bunday holatda uni o'simlik yog'lari yoki sariyog' bilan qo'shib iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Shuningdek, surunkali oshqozon kasalliklarida, jumladan, oshqozon shirasi kamayganda, jigar va taloq, kamqonlik, teri, asab va yurak-tomir xastaliklari hamda jinsiy, jismoniy va aqliy yetishmovchilikda uzoq muddat qo'llash yaxshi samara beradi.

Sumalakda kalsiy ko'pligi sababli bolalar, homilador va emizuvchi ayollar, keksalar, osteoxondrozi bo'lgan bemorlarga foydali. Shuningdek, temir, mis, rux, marganets, selen va kobalt kabi moddalar darmonsizlik va boshqa bir qancha xastaliklarni davolaydi. Turli shiriniqlar, sutli mahsulotlar bilan birga ham iste'mol qilsa bo'ladi. Ammo go'shtli va yog'li ovqatlar bilan tanovul qilish oshqozon faoliyatiga

nojo'ya ta'sir ko'rsatishi mumkin. Barcha turdagi kamqonlik va qon kasalliklarida tavsiya etiladi. Bolalarda uchraydigan raxit, kuchli shamollash, buyrak xastaliklarida, shuningdek, qandli diabetda ham sumalakni ko'p iste'mol qilib bo'lmaydi.

Sumalakni bir yoshdan oshgan bolalarga qo'shimcha ovqat sifatida kam-kamdan berish tavsiya etiladi. Ayniqsa, ozg'in, o'sishdan orqada qolgan, ishtahasi past bo'lgan, tez-tez kasallikka chalinuvchan bolalar har kuni kam miqdorda sumalak qabul qilishlari maqsadga muvofiq. Taomni bolalarga tavsiya etishda uning yangi tayyorlanganligiga e'tibor qaratish lozim. Uzoq saqlangan oziq-ovqatlar kabi sumalak ham issiq kunlarda tez buziladi. Sumalak tabiiy shirin mahsulotlar qatoriga kiradi, allergiya chaqirmaydi.

Sumalak salqin joyda yoki sovutkichlarda saqlab, iste'mol qilsa bo'ladigan mahsulot, 10 kungacha buzilmaydi, faqat uni issiq va ochiq joyda saqlamaslik kerak. Tez buziluvchan mahsulot bo'lganligi uchun uni konservatsiya usulida saqlab bo'lmaydi.

Saydullo RASULOV,
tibbiyot fanlari doktori, bolalar gastroenterologlari va nutritsiologlari jamoat birlashmasi rahbari.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-APREL

Boturxon VALIXO'JAYEV – (1932-2005) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

Nazokat ABDURAHIMOVA – 1987-yilda Oqdaryo tumanida tug'ilgan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi.

2-APREL

Komila SUYAROVA – 1995-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi.

3-APREL

Mamarasul BOBOYEV – (1911-1969) Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan, shoir.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 950 nusxada chop etildi. Buyurtma 173. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

